

## ORGANIZING THE SYSTEM OF WORKING WITH YOUNG PEOPLE IN THE NEIGHBORHOOD AND INTRODUCING THE POSITION OF YOUTH LEADER

Haytmatov Ulugbek Turazoda

Officer of the University of Public Security in the Republic of Uzbekistan

Kurbanbayev Dauibay Jaylaubayevich

A Cadet at the University of Public Security in the Republic of Uzbekistan

### ABSTRACT

This article introduces new mechanisms for youth employment and meaningful organization of leisure time, issuing certificates of qualification to young people and ensuring their employment, the unemployed population and vacancies, youth management written about.

**Keywords:** youth, employment, boy, girl, qualification, certificate, population, jobs, management, mechanism.

### INTRODUCTION

Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida o'tgan yili 27-yanvar kuni yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Shundan kelib chiqib, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga "Ishga marhamat" monomarkazlarida, shuningdek, qator oliy ta'lim muassasalari va yirik sanot tarmoqlarida malakani baholash markazlari tashkil etish vazifasi qo'yildi. Bu orqali joriy yilning o'zida 30 ming yigit-qizga malaka sertifikati berib, ularning bandligini ta'minlash mumkinligi aytildi.

Tadbirkorligini boshlamoqchi bo'lgan yoshlarning mini-texnologiya va uskunalar xarid qilishi uchun subsidiya ajratish, kredit olishda sug'urta to'lovi bo'yicha ko'maklashish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Yoshlar bandligini ta'minlash omillaridan biri ularni talab etilayotgan kasb bo'yicha ixtisoslashtirishdir. Yig'ilishda shu paytgacha ishsiz aholi va bo'sh ish o'rinnari o'zaro uyg'unlikda ko'rib chiqilmagani tanqid qilindi.

Davlatimiz rahbari yoshlarni kasbga o'qitish orqali malaka toifasini berib, shunday vakant o'rinnarga joylashtirish mumkinligini ta'kidladi. Yig'ilishda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, qobiliyatini yuzaga chiqarishi uchun zarur sharoitlar yaratish masalalari ham muhokama qilindi.

O'zbekiston Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, diplomi yo'q, lekin amaliy ko'nikmasi bo'lgan ishsiz yoshlarni, malakani baholash markazlarida o'qitib, sertifikat berish tizimi joriy etildi.

Yoshlar bilan ishslashning yangicha boshqaruvin mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishslashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori imzolandi. Unda "Yoshlar balansi"ni shakllantirish, yoshlar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni "Yoshlar daftari" va

“Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish, mahallalarda yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini yoshlardan orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlarning festivallari va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste’dodi va tashabbuslarini rag’batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma’naviy rivojlanishini ta’minalash, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlardan tizimli ishlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashish to’g’risida yozilgan.

### Bundan tashqari, qarorda:

- Har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada (keyingi o‘rinlarda – mahalla) yoshlardan yetakchisi lavozimi joriy etish;
- Yetakchi yoshlarning tadbirkorlik g‘oyalarini amalga oshirish, ular faoliyatiga kredit, subsidiya va boshqa yordam choralarini jalb qilish bo‘yicha mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minalash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchisi bilan hamkorlik qilish;
- Yoshlar ishlari agentligi, uning hududiy boshqarmalari va bo‘limlari tuzilmalarida mahalla va ta’lim muassasalarida yoshlardan ishlash bo‘linmalari tashkil etish;
- Ish faoliyati natijalariga ko‘ra Yetakchilar Milliy kadrlar zaxirasiga kiritish, bunda ushbu Yetakchilar tanlovsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuqori lavozimlarga o’tkazilishi mumkinligi shu va boshqalar o‘z aksini topgan.

Hozirgi yoshlarning zamonaliviy texnologiyalarga qiziqishi yuqori. 2019-yilda IT-parkning 5 ta filiali va Raqamlı texnologiyalar o‘quv markazlarida 10 mingdan ortiq yoshlardan saboq olgan. Bu qamrovni kengaytirish maqsadida har bir tumanda kamida bittadan muktabda IT-to‘garagi ochish, yana 100 ta Raqamlı texnologiyalar o‘quv markazi tashkil etib, 20 ming yigit-qizni dasturlash va axborot texnologiyalari sohasida tadbirkorlikka o‘qitish muhimligi Prezidentimiz tomonidan ta’kidlandi.

O’tgan yili yoshlarning ijtimoiy masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi. Bugungi kunda 129 ta oliy o‘quv yurtida 500 mingdan ortiq talaba o‘qiyotgani, lekin ular yotoqxona bilan yetarlicha ta’minalanmagani ko’rsatib o’tilgan. Mutasaddilarga talabalar uylarini ko‘paytirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, Davlatimiz rahbari iqtidorli yoshlarni kashf qilish, ularning tashabbus va intilishlarini har tomonlama qo’llab-quvvatlash maqsadida “O’zbekiston uchun 100 g’oya” loyihasini ilgari surdi. Loyiha doirasida shahar va qishloqlardagi tashabbuskor yoshlarning iqtisodiyot, ta’lim, sport, sog‘liqni saqlash, axborot texnologiyalari kabi sohalardagi g’oyalarini ro‘yobga chiqarish uchun sharoit yaratiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.MIRZIYOEV Toshkent shahri, 2022 yil 19 yanvar
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 27 yanvar kuni yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi.
3. <https://uza.uz/>
4. <https://iiv.uz/>
5. <https://lex.uz/>